

YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ULARNI YOT G'oyalar ta'siridan himoya qilish

*Sodiqov H. M.- dotsent, Abdullaeva F.A. - magistrant
A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh.*

Annotatsiya: Maqolada o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ularni turli xildagi yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish borasidagi olib borilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kitob, o'quvchi-yoshlar, kitobxonlik madaniyati, yot g'oyalar, mutolaaqilish, shakllantirish, ta'lif.

Аннотация: В статье акцентируется внимание на проводимой работе по ограждению учащихся от влияния различных чужеродных идей путем формирования у учащихся культуры чтения.

Ключевые слова: Книга, студенты, культура чтения, иностранные идеи, интеграция, образование, образование.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar yoshlaring orasida «ommaviy madaniyat» kabi yangi ilmiy kategoriyalarning yuzaga kelishi o'quvchi-yoshlarning falsafiy dunyoqarashi uchun tahdidli muammolar kelib chiqishiga sabab bulmoqda. Hatto jahon yoshlari psixologiyasida oilaviy, ya'ni ota-onasi va farzandi o'rtasidagi munosabatlar, kitob mutolaa qilish madaniyati, milliy-diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat sovuqlashib, begonalashish tenden siyalari kuchayishi kuzatilmoxda. Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali ularni turli xildagi yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish borasidagi olib borilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tiladi.

Mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarni turli yot g'oyalar, tahdidlardan himoya qilish, ularning tarbiyasini to'g'ri amalga oshirish borasida qator vazifalar belgi lanib, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning samarasi ularoq qolgan davlatlar ga ham o'rnak bo'la oladigan dasturlar ishlab chiqilgan.

Chunonchi, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev «Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga muljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yuna lishlari»ga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'rzasida ta'lif, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish yuzasidan qator vazifalarni belgilab berdi. Bular qatorida o'quvchi-yoshlarning badiiy, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: «Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlарimizning

kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi». Haqiqatan ham, o‘quvchi-yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ilmiy, tarixiy asarlarni o‘qish, o‘rganish, tahlil etishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish orqali ularda turli yot g‘oyalarga nisbatan mafku raviy immunitet hosil qilinadi.

Ilm-fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshirok do‘sit yo‘kligi xususidagi fikr va g‘oyalarni juda ko‘p eshitamiz.

Kitobning inson xayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o‘rnii qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go‘zallikka muhabbat o‘yg‘otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘usini rivojlantiradi.

Darhaqiqat, kitob o‘zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o‘quvchini insoniyatning ma’naviyat tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, xis-tuyg‘ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar ukuvchi tomonidan kanchalik chukur va tulik kabul kilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta’sir kursatadiki, ukuvchi uz oldiga buyuk maksadlar kuyib, yomon illat-lardan uzini saklaydi. Shuning uchun x,am ta’-limning yetakchi vazifalaridan biri ukuv-chilarda kitob ukishga bulgan kizikishni shakllantirish, undagi vokea va x,odisalarmi tax,lil etishga urgatishdir. Buning uchun avva-lambor, x,ar bir ukituvchi u kaysi fandan dars berishidan kat’iy nazar, ukuvchini kitob ukishga kiziktirish yullari, shart-sharoitlarini bilishi zarur.

Ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni tahlil kilish kobiliyati o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Bu ta’lim jarayonida ukituvchining sa’y-x,arakatlari, turli metod va vositalari yordamida amalga oshiriladi. Ukituvchi ukuvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni ukish, mutolaa kilishga mex,r uyg‘otish va kitobxonlik saviyasini ustirish borasida amal kilishi lozim bulgan kuyidagi mezonlarni tavsiya kilmokchimiz:

- ukuvchilar kanday kitoblarni ukishga kizikishi va tafakkuri kay darajada ekanligini aniklash;
- ukuvchining tafakkur kilish faoliyatla-rini anglashi, jamiyat a’zolari bilan erkin mulokotda bula olish kunikma va malakala-rini rivojlantirishga e’tibor karatishi;
- uz fikrini ravon, erkin ifodalay olish kunikmasini shakllantirishi;
- kizikishiga mos asarlarni ukib, mazmu-nini surab borish orkali kitob ukish kunikmasini x,osil kilish, shu urinda kundalik tutishga urgatishi;
- yozma nutk belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali ukiy olish malakasini rivojlantirishi kabilar.

O‘quvchilarda ilmiy-ommabop, badiiy asarlarni ukishga bulgan kizikishni oshirish orkali ularda atrofidagi vokea-hodisalarga tug‘ri, okilona munosabat shakllantiriladi, olamni urganishlari keskinlashadi. Shuningdek, ukuvchilarda uz tengdoshlari, ularning hayoti, uylari, sarguzashtlari tug‘risida, tabiat va uni kuriklash

xususida, vatanimiz tarixi tug‘risidagi dastlabki ma’lumotlar ijtimoiy-ma’naviy tajriba tuplanishiga x,am yordam beradi. Bu, ya’ni ilmiy-ommabop,badiiy, tarixiy asarlarning ukuvchi tomonidan urganilishi fakat ta’limiy vazifalar nigina emas, balki ukuvchi shaxsini rivojlantirish, yet g‘oyalar ta’siridan himoyalash kabi tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi.

Ayniqsa, usmir yoshdagi ukuvchilarda kitob ukish va mutolaa kilishga kizikishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi ukuvchilar uzlarini juda erkin, tetik sezaga boshlaydi, atrofidagi vokea-hodisalarga kizikishi ortib boradi. Ular kuprok uzlari kizikkan mashg‘ulotni kattalardan yashirincha bajarishga harakat kiladi. Yolg‘on suzlash, kilgan aybini yashirish va kattalar oldida uzini akli raso kilib kursatishga urinadi. Bu yoshdagi ukuvchilarning bush vaktini kanday utkazayotgani, nimalar bilan mashg‘ul bulishini ota-ona, ukituvchi, murabbiy, mahalla faollari doimo nazoratga olishlari lozim.

Keyingi yillarda yuqori sinf usmir yoshdagi maktab o‘quvchilarining bo’sh vaqtleri kuproq televizor ko’rish, kompyuter, internet ma’lumotlari, har xil kungilochar tomoshalar bilan band bulmoqda. Bu usmir yoshdagi o‘quvchilarining turli yet g‘oyalarni o’zlashtirishida o‘z ta’sirini kursatmoqda. Buning oldini olishda maktabda turli ma’naviy tadbirlarni utkazish samarali natija beradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimi oldida yosh avlodga zamonaviy bilim va xunarlar buyicha mustaxkam ta’lim berish bilan birga, ularni xar kanday mafkuraviy taxdid va tajovuzlarga nafakat berilmaydi-gan, balki ularga karshi faol kurasha oladigan, mustakil fikrga ega bulgan, katta ishonch va maksad bilan yashaydigan fidoyi, yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar turibdi. Bu vazifalarni muvaffakiyatli amalga oshirishda xalki-mizning asrlar osha yashab kelgan an’analari,urf-odatlari, tili va ruxi negiziga kurilgan milliy mustakillik mafkurasi umuminsoniy kadriyatlar bilan maxkam uyg‘unlashgan xolda kelajakka ishonch tuyg‘usini ukuvchilar kalbi va ongiga yetkazish, ularni vatanga muxabbat, insonparvarlik ruxida tarbiyalash, xalollik, mardlik, sabr-bardoshlilik, bilim va ma’rifat egallashga intilish kabilar orkali tarbiyalash shaxs ma’naviy kamolotiga olib boruvchi, kolaversa, turli yet g‘oyalar ta’siri-dan ximoyalashda eng samarali yo‘ldir.

Bunday fazilatlarga ega shaxsni tarbiyalash uchun avvalo o‘quv tarbiya jarayonida:

- yoshlar ongiga sharmu hayo, odob-andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzat-extirom, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlarni shakllantirish;
- shaxsning rivojlanishida uzaro munosa-batlar hamkorligi, buyuk ajdodlarimiz merosiga ulkan g‘urur tuyg‘ularini singdirish, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlar va urf-odatlarga beqiyos hurmat kunikmalarini shakllantirish;
- uz dini va uzga dinlarga nisbatan bag‘rikenglik tamoyillarini singdirish;

- shaxs kamoloti va ma'naviyati ijtimoiy jamiyatdagi muxim omillardan ekanligini anglatish;
- insoniy fazilatlar va g'ayriinsoniy karashlarning uziga xos xususiyatlarini kurtasish;
- insonlarga xos samimiylilik, vatanparvarlik, mexr okibat, imon-e'tikod, fidoyilik kabi fazilatlarning jamiyat tarakkiyotidagi eng asosiy omillardan biri ekanligini anglatish;
- yoshlarda mustakil, ijodiy fikrlash, axborotlarni saralash, taxlil etish malakasini shakllantirish zarur deb xisoblaymiz.

Uzluksiz ta'limning xar bir boskichida ukuvchi-yoshlarning yoshi, psixologik xususiyatlari, uzlashtirish imkoniyatlarini inobatga olib, ukuv predmet larining xususiyatidan kelib chikib, ularning kalbi va ongini turli zarar li g'oya va mafkuralar ta'siridan ximoya kilishni davom ettirish va ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni ukishga kizikishlarini muntazam oshirib borish lozimligini qayd etgan holda quyidagilar tavsiya qilinadi.

Umumiyl o'rta ta'limning boshlang'ich sinf ukuvchilarida:

- xalk og'zaki ijodi namunalari: ertak, masal, rivoyat, dostonlarda aks etgan milliy va umuminsoniy kadriyatlar, hamjihatlik, mardlik tushunchalari aks ettirilgan kaxramonlar kiyofasi orkali ezgu tushunchalarni singdirish;
- milliy ertak kahramonlari orkali xalollik, rostguylik, vijdonlilik, mexnatsevarlik, uz suzining ustidan chikish inson kurki ekanligini anglatish;
- shaxs ma'naviy kamolotida milliy g'urur va milliy iftixon tuyg'ularini davlatimiz ramzlarini misolida tushuntirishdan iborat.

Yukori sinflarda:

- badiiy, tarixiy asarlarda aks etgan milliy va ma'naviy kadriyatlarning moxiyatini yuksak insoniy fazilatlar: yurtga muxabbat, vatanga sadokat, unga daxldorlik tuyg'ularini shakllantirish;
- asar kahramonlarida mavjud bulgan ijobiy xislatlar: fidoyilik, tinchliksevarlik tushunchalarining umumiy mazmuni, tafakkur ozodligi, ong va shuurning tazyikdan xalos etilganligi, akliy zakovat, ruxiy, ma'naviy saloxiyat kabi tushunchalarning maksadga yunaltirilganligi;
- asardagi vokealarni ukuvchi xayotidagi vokeliklar bilan solishtirib, kundalik faoliyatida odoblilik, rostguylik, vijdonlilik fazilatlarini shakllantirish;
- Vatanimizning istikboli va istiklol hakida qayg'urish, uz xalkining kadr-kimmati, or-nomusini anglash va uni ximoya kilish, ezgu niyatlar og'ushida mexnat kilib, uz iste'dodi, bor imkoniyati, kerak bulsa jonini yurt istikboli, eliga baxshida etish.

O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limida:

- badiiy, tarixiy, ilmiy-ommabop asarlarni ukish, tushunib, undagi sharkona axlok-odob va umumbashariy Foyalarni ukuvchi uziga singdirishi;

- mard, fidoyi kishilar yurtiga, mexru shafkat, muxabbat barkaror bulgan tafakkur va ijod kaynagan mukaddas makonga aylanti-rish tuYFusini shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy axlokiy va kasb-xunarga muxabbat ruxida tarbiyalash;
- yoshlar ongida turli zararli okimlarga nisbatan <^oyaviy immunitet»ni shaklanti-rish;
- ukuvchi-yoshlarga kitob, ilm va tafakkur odamlar kalbiga nur, ongiga ziyo, xonadoniga fayz-baraka keltiradigan buyuk mu'jiza ekanligini anglatish;
- mustakillikka xavf tug'diruvchi tashki omillar: diniy ekstremizm, akidaparastlik, vaxobiylilik, akromiylar, x.izbut-tax,rir, mis-sionerlik, kosmopolitizm okimlarining Farazli maksadlarini yoshlarga anglatish va bunday taxdidlardan ogox bulishga undash;
- insoniy fazilatlarni xurmat kilish, salbiy xislatlardan nafratlanish kunikma-larini xosil kilish;
- moddiy va ma'naviy xayot uyg'unligi, uni shakllantirish boskichlari to'g'risida tushun-chalarni anglatish.

Binobarin yoshlarning ma'naviyati va dunyo-karashi, mafkurasiga yot Foyalarning ta'sir etishining oldini olishda kuyidagi maksad va vazifalarni xulosa sifatida kuydik:

- ommaviy madaniyat va terrorizmning yoshlarga Foyaviy va mafkuraviy ta'sirining oldini olishda keng jamoatchilik (ota-on, bobo-buvi, maxalla)ning rolini yanada oshi-rish;
- ekstremizm va terrorchilikning dunyo buylab tarkalishi, ularning maksadlaridagi uxshashlik, yakinlik, ekstremistik tashkilot-larning yashash va kurollanish manbalari kabi yunalishlarni ilmiy tadkik etish xamda ularning tanlagan Foyalari va yellari puch ekanligini yoshlarga tushuntirish;
- Uzbekistonda globallashuv va ekstremistik mafkuralarga karshi Foyaviy kurashning nazariy-uslubiy jixatlarini tadkik etish va «jaxolatga karshi ma'rifat bilan kurashmok kerak» shiorini jonlantirish;
- yoshlarga mamlakatimiz tarakkiyotiga raxna solayotgan xar kanday Foyaviy mafkuraviy karashlarning oldini olishda, ularning bush vaktlarini mazmunli utkazishlarini nazoratga olish;
- ta'lim muassasalari, maxallalarda kutubxonalarini tashkil etish va kitob fon-dini boyitish;
- xar bir oilada shaxsiy kutubxonaning tashkil topishiga erishish kabilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Tankidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik koidasi bo'lishi kerak. / Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish ning asosiy yakunlari va 2017 yilga muljallangan

iktisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. -T.: «Uzbekiston», 2017. -104-b.

2. Safo Matjonov. Kitob o‘qishni bilasizmi? T.: O‘qituvchi, 1993.- 140 b.
3. Safarova D.S. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchiyoshchlarni turli yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish. ZAMONAVIY TA’LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2017, 6, 42b.
4. Qayumxo‘jaeva Yo. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari, Toshkent-2007, 107 b.